

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ VA SUV XO`JALIGI VAZIRLIGI

SAMARQAND QISHLOQ XO`JALIK INSTITUTI

Oliy matematika va axborot texnologiyalari kafedrası

“Tasdiqlayman”  
«Oliy matematika va axborot  
texnologiyalari» kafedrası mudiri  
\_\_\_\_\_ dots. X.Urdushev  
«\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2014-y.

**"INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI" FANIDAN**

**KURS ISHI**

**8-mavzu. Operatsion tizimlar.**

**Bajardi:** Yaxshibaev Sanjar \_\_\_\_\_

QXM va MQI: 5410500-Qishloq xo`jalik maxsulotlarini saqlash va dastlabki qayta  
ishlash texnologiyasi 1-bosqich 17-guruh talabasi

Rahbar: Q.Murodov \_\_\_\_\_

Komissiya raisi: X.Urdushev \_\_\_\_\_

A`zolari: \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

**Sana:** \_\_\_\_\_ 2014-y

Samarqand-2014

“Tasdiqlayman”  
“Oliy matematika va axborotlar  
texnologiyalari” kafedrası  
mudiri \_\_\_\_\_ dos. X.Urdushev  
« \_\_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 2014-y.

**Informatika va axborot texnologiyalari fanidan**

**BAJARILADIGAN KURS ISHINI TOPSHIRIQ VA BAHOLASH VARAQASI**

Yaxshiboyev Sanjar- Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash va mahsulotlarni qayta ishlash fakulteti “Mahsulotlarni saqlash va dastlabki qayta ishlash” yo'nalishi 1-bosqich 17-guruh talabasi

Rahbar: Q.Murodov

**MAVZU TOPSHIRIG'I BO'YICHA VAZIFALAR:**

1. **Ma'lumotlarni kodlash** mavzusidagi topshiriq
2. Dastlabki ma'lumotlar: Kurs ishi mavzusiga oid konspektlar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarni o'rganish, bajarish va o'zlashtirish
3. Foydalanilgan materiallar:  
Kafedradagi 1) Informatika va axborot texnologiyalari fanidan elektron o'quv-uslubiy majmua; 2) <http://www.ziyonet.uz> - axborot ta'lim tarmog'i resurslari va [3;5;15;18;26;28;29;39;45] adabiyotlar
4. Qo'shimcha vazifa va ko'rsatmalar Kurs ishida Axborot va ma'lumotlarning tavsifi va xususiyatlari mavzusida internetdan ma'lumotlar keltirilsin.

Kurs ishini topshirish muddati:

Talaba: \_\_\_\_\_ Yaxshiboyev Sanjar

(imzo)

(sana)

| 1                            | 2 | 3 | 4 | Tushuntirish xati | Himoyaga ruxsat berildi, (ruxsat berilmadi) |
|------------------------------|---|---|---|-------------------|---------------------------------------------|
|                              |   |   |   |                   |                                             |
| Kurs ishi rahbarining imzosi |   |   |   |                   |                                             |

| Kurs ishini baholash      | Maksimal ball, jami | Kurs ishini tayyorlash uchun, ball OB | Kurs ishini himoyasi uchun, ball JB | Kurs ishi himoyasida savollarga javob berish uchun ball OB |
|---------------------------|---------------------|---------------------------------------|-------------------------------------|------------------------------------------------------------|
| Kurs ishini baholash      | 100                 | 0- 40                                 | 1- 30                               | 1- 30                                                      |
| Talabaning to'plagan bali |                     |                                       |                                     |                                                            |

Rahbar \_\_\_\_\_ Q.Murodov  
(imzo)

(sana)

## MAVZU: OPERATSION TIZIMLAR

### REJA:

- **I. Kurs ishining nazariy(referativ)qismi bo'yicha vazifalar:**

- 1.Operatsion tizimlar, ularning vazifasi,tarkibi va asosiy funksiyalari
- 2.Klient va server operatsion tizimlari
- 3.Fayllar va papkalar.
- 4.Fayl tizimi va uni boshqarish
- 5. **Microsoft Word:** hujjat xususiyatini va sahifalari parametrlarini sozlash.

### **II. Kurs ishining amaliy qismi bo'yicha vazifalar:**

➤ 1.Microsoft Excelda iqtisodiy mazmundagi masalalar echish va diagrammalarini tuzish . Chorvachilik fermasida qoramollar uchun yillik oziqa sarfi va tannarxini hisoblash masalasi: 8-vazifa.

➤ 2.Axborot jarayonlarini algoritmlash va dasturlash. Quyida berilgan masalani:

- 1) o'zli algoritmini tuzing;
- 2) blok-sxemali algoritmini tuzing;
- 3) dasturlash (Paskal)tilida-dasturli algoritmini tuzing;
- 4) Turbo-Paskal muhitiga dasturni kiriting va natijalarni tahlil qiling:  
38-vazifa.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Informatika va axborot texnologiyalari. Akademik S.S.G'ulomov umumiy tahriri ostida. Darslik. T.: "Iqtisodiyot", –2009.

2. Hoshimov O.O., Tulyaganov M.M. Kompyuterli va raqamli texnologiyalar. T.: "Yangi asr avlodi", 2009. 102 b.\*

### **Qo'shimcha adabiyotlar**

1.Faronov V.V. Turbo Paskal 7.0. Начальный курс. Учебное пособие. М.: «Nollidj», 1999. – 580 s.

2.Urdushev X., Raximov A., Boychaqayev M, Qalandarov R. Microsoft Windows XP va Microsoft Office XP da ishlash. Uslubiy qo'llanma. Samarqand. SamQXI. 2007. 320 b.

### **Elektron o'rgatuvchi dasturiy majmualar**

1.Электронный учебник по Microsoft PowerPoint.chm

### **Internet portallar va saytlar**

1.<http://www.gov.uz>- O'zbekiston Respublikasi hukumati portali.

2.[http://searchengine.narod.ru/archiv/se\\_2\\_250500.htm](http://searchengine.narod.ru/archiv/se_2_250500.htm)-Дидактические материалы по информатике.

## KIRISH

Axborot texnologiyalari inson faoliyatining hamma jabhalariga keskin tarzda kirib bormoqda va rivojlanishni davom ettirib, yanada chuqur kirib bormoqda. Oldindan ma'lum va odatiy bo'lib qolgan, soni millionlardan oshib ketgan shaxsiy kompyuterlardan tashqari har xil tizimlarga qo'shib chiqarilayapgan maxsus hisoblash vositalari soni ham oshib bormoqda. Bu turli hisoblash tizimlari foydalanuvchilari soni ham kundan-kunga oshib bormoqda va bu borada ikkita bir-biriga qarama-qarshi tendensiyalar ham rivojlanmoqda. Bir tomondan axborot texnologiyalari murakkablashib bormoqda va ularni tadbiq qilish uchun, va ularni kelgusida rivojlantirish uchun chuqur bilimlarga ega bo'lishi lozim. Va boshqa tomondan foydalanuvchilarni va kompyuter bilan interfeysi (muloqoti) yanada soddalashmoqda. Kompyuter va axborot texnologiyalari borgan sari "do'stona" va xatto informatika va xisoblash texnikasi borasida mutaxassis bo'lmagan inson uchun ham tushunarli bo'lib bormoqda. Bu avvalo, foydalanuvchi va ularning dasturlari hisoblash texnikasi bilan maxsus tizimli dasturiy ta'minot - operatsion tizim orqali muloqatda bo'lgani uchun ham mumkin bo'lib qoldi.

Operatsion tizim, ham foydalanuvchilar, ham bajariladigan ilovalar uchun ham muloqot (interfeys) tashkil etadi. Foydalanuvchilar dasturlari, va boshqa ko'pgina xizmatchi dasturlar, ixtiyoriy dasturlarda juda ko'p uchraydigan amallarni so'raydi. Bunday amallarga avvalambor, kiritish-chiqarish amallari, qandaydir dasturni ishga tushirish va to'xtatib qo'yish, qo'shimcha xotira blokini olish yoki bo'shatish va boshqa ko'pgina amallar kiradi. Bunday amallarni har safar dasturlash va dastur tanasiga ikkilik kodda joylashtirish maqsadga muvofiq emas, balki ularni birgalikda yig'ib dastur talabi bilan bajarishga berish qulaydir. Aynan shu narsa operatsion tizimning muhim funksiyalaridan biridir.

Amaliy dasturlar, va ulardan tashqari ko'pgina tizimli ishlov beruvchi dasturlar (m-n, ma'lumotlar bazasini boshqaruvchi va dasturlash tizimlari) kompyuter qurilmalariga bevosita murojaat qila olmaydilar, balki ular bilan operatsion tizimlarga murojaat qilibgina bog'lanadilar. Foydalanuvchilar operatsion tizim komandalari, yoki tizim taklif qilgan harakatlar bilan tizim va o'zlarining dasturlari bilan o'zaro aloqada bo'ladilar. Bundan tashqari operatsion tizim ishonchli hisoblashlarni tashkil etish va resurslarni samarali taqsimlashga javob beradi.

Operatsion tizimlarni chuqur o'rganish, avvalambor dasturiy ta'minotni yaratishda qo'llashga imkon beradi. Respublikamizda murakkab axborot tizimlarini, dastur majmualarini va keng tarqalgan operatsion tizimlarda ishlashga mo'ljallangan alohida ilovalar ishlab chiqish keng ommalashmoqda. Shu nuqtai nazardan operatsion tizimlar, ularni qurish prinsiplari, hisoblashlarni tashkil etish muhim rol o'ynaydi.

## 1. Operatsion tizimlar, ularning vazifasi, tarkibi va asosiy funksiyalari

«Operatsion tizim» atamasi ostida biz funksiyasi xisoblash tizimining zaxiralarini taksimlash va ishlatilishini tekshirishdan iborat bulgan dasturlar majmuini tushunamiz. Biz bilamizki, xisoblash tizimida fizik zaxiralar, ya'ni anik kurilma ( magnit disklari, operativ xotira, prosessorning ishlash vakti) bilan boglik zaxiralar mavjud. Yana shu bilan birga tizimda tizimning yaxshi ishlashini ta'minlovchi mantiqiy zaxiralar ( goxida ularni virtual deb ataladi) , ya'ni anik kurilma kurinishida mavjud bulmagan, lekin foydalanuvchiga ba'zi bir manba sifatida takdim etiladigan zaxiralar mavjud. Fizik va mantiqiy zaxiralarni biz birgalikda xisoblash tizimining zaxiralari deb ataymiz.

Ixtiyoriy operatsion tizim ularni boshkarish xisobiga, ularning xususiyatlarini xarakterlaydigan kandaydir tushunchalarga ega. Bunday tushunchalarga fayl, jarayon, obyekt, va x.k. kiradi. Xar bir OT uzining tushunchalari tuplamiga ega. Misol uchun, Windows NT OT da bunday tushunchalarga obyekt tushunchasi kiradi vash u tushunchani boshkarish bilan barcha mumkin bulgan funksiyalar kursatiladi. Agar biz UNIX OT karasak, bu yerda birinchi navbatda bunday tushuncha bulib fayl tushunchasi tushuniladi, ikkinchi navbatda jarayon tushunchasi tushuniladi.

Jarayon - bu shunday tushunchaki, u barcha OTlarda mavjud. Jarayon - bu dastur bulib, zaxiralarga egalik kilish xukukiga egadir. Ikki dasturni (foydalanilayotgan kod va berilganlar) va dasturga tegishli barcha zaxiralarni (bu operativ xotira fazosi, tashki xotirada joylashgan berilganlar, boshka zaxiralarga egalik kilish xukuki, misol uchun, aloka chiziklariga) kurib chikamiz. Agar ushbu ikki dasturga tegishli zaxiralar tuplami mos tushsa, biz bu ikki dastur xakida ikki jarayon de bayta olmaymiz, bu – bitta jarayondir. Agar xar bir dasturda uzining zaxiralari tuplami mavjud bulsa, ular kesishishlari mumkin, lekin mos tushmasalar biz ikki jarayon xakida gapirishimiz mumkin.

Agar, kachonki bir necha jarayonlarning zaxiralar tuplami bush bulmagan kesishuvga ega bulsa, u xolda zaxiralardan bulib foydalanish masalasi yuzaga keladi. Bu xakda biz avvalgi ma'ruzalarda xam gapirib utgan edik, eslang chop etish kurilmasi xakidagi misol. Bizda bir necha, xar biri uzining zaxirasi sifatida chop etish kurilmasiga ega va ixtiyoriy vaktida bu zaxiraga kandaydir ma'lumotni chop etish buyurtmasi bilan murojaat kilishi mumkin, jarayon bulishi mumkin. Jarayonlarni xarakatini boshkarishni kursatgan OT ning funksiyalaridan birini chop etish kurilmasi misolida jarayonlarni sinxron ishlashi kursatilgan. Keling, jarayonlarni boshkarish deganda nimalarni tushunamiz, karab kuraylik.

**Vaktni bulaklash OT** (masalan, UNIX, VMS) paketli kayta ishlash tizimlarining asosiy kamchiligini, foydalanuvchi –dasturchini uz masalalarni bajarish jarayonida ishtirok etmaslikdan, tugatishga muljallangan. Vaktni bulaklash OT ning xar bir foydalanuvchisiga aloxida terminal ajratiladi va u orkali foydalanuvchi uz dasturi bilan dialogda buladi. Vaktni bulaklash tizimlarida xar bir masalaga prosessorning kvant vakti ajratilgani sababli, xech bir masala prosessorni uzok vakt band kila olmaydi va javob vakti kafolatlangan. Agar kvant vakti juda katta bulmagan xolda, barcha foydalanuvchilarda mashinani resurslari uning bir uziga ajratilgandek tuyuladi. Vaktni bulaklash tizimlari paketli kayta ishlash tizimlariga nisbatan kichik

utkazuvchanlik kobiliyatiga ega bulganliklari uchun bajarilish uchun tizim uchun «foydali» bulgan masala emas, balki barcha foydalanuvchi tomonidan yuborilgan masala kabul kilinadi, bundan tashkari xisoblash tizimini prosessorini bir masaladan ikkinchi masalaga tez tez utkazish xisobiga xarajatlar yuzaga keladi. Vakti bulaklash tizimlarini unumdorlik kriteriysi bulib, maksimal utkazuvchanlik kobiliyati emas, balki foydalanuvchi uchun yaratilgan kulayliklar unumdorligi xisoblanadi.

**Real vakt tizimlari.** Endi kuyidagi masalani karaymiz. Faraz kilaylik, avtopilot orkali boshkariluvchan samolet pasayish amalini bajarsin. Xar bir samoletda samoletdan yergacha bulgan balandlikni ulchab turuvchi asbob bor, Samoletning ish rejimi shundayki, berilgan dastur asosida uning funksiyalarini kompyuter boshkaradi. Demak, agar bizda avtopilot tizimi mavjud bulsa, va samolet pasaymokda, u xolda tizim uchish balandligini nazorat kilishi kerak. Bu samoletning markaziy kompyuteri bir necha masalalarni yechishi mumkin: u uchish balandligini, baklardagi yonilgi mikdorini darajasini, dvigatelni ishini kandaydir kursatkichlarini nazorat kilishi kerak. Bu funksiyalarni xar birini boshkaruvi bilan uz jarayoni shugullanadi. Faraz kilaylik, bizda paketli OT, va biz baklardagi yonilgi darajasini diqqat bilan tekshirayapmiz. Bu xolatda avariya xolati yuzaga keladi, chunki samolet pasaya boradi va OT buni sezmaydi xam.

Faraz kilaylik, bizda vakti bulaklash tizimi bulsin. Bu tizimning xususiyatlaridan biri jarayondan jarayonga kupsonli utkazishlar tufayli unumsizligidir. Yana usha xolat: balandlik nolga tenglashayapti, OT esa utkazishlar jadvali bilan shugullanayapti. Bunday variant xam tugri kelmaydi.

Bunday kurinishdagi masalalarni yechish uchun xam uz rejalashtirish kurilmalari kerak. Bu xolatda **real vakt OT** deb ataluvchi, asosiy kriteriysi tizimning u yoki bu xolatga reaksiyasini kafolatlash vakti xisoblangan OT dan foydalaniladi. Ya'ni tizimda shunday xolatlar tuplami mavjudki, tizim ixtiyoriy xolatda ularga axamiyat beradi va ularni avvaldan berilgan vakt ichida kayta ishlaydi. Bizning misolimiz uchun bunday xolat balandlikni ulchovchi asbobdan kelib tushayotgan ma'lumotlar bulishi mumkin. Bu sinf OT uchun juda oddiy algoritmlardan foydalaniladi. Barcha rejalashtirish ushbu xolatni kandaydir kiymatdan oshmagan vakt ichida kayta ishlash kriteriysiga asoslanadi. Lekin real vakt OT lari yana uzining spesifik kurilmasiga ega bulib, fakatgina ushbu sodda algoritmdangina emas, balki tizimning ichki kaytakurilishlaridan xam aniklanadi.

**Real vakt OT lari** turli texnik obyektlarni boshkarish uchun kullaniladi, masalan, stanok, sputnik, ilmiy eksperimental urnatishlar yoki texnologik jarayonlar, ya'ni galvanik liniya, domen jarayoni va x.k. Bu barcha xolatlarda obyektni boshkaruvchi u yoki bu dastur ma'lum bir chegaraviy vakt oraligida bajarilishi shart, aks xolda avariya yuz berishi mumkin: sputnik kurinish xonasidan chikib ketishi, datchiklardan kelayotgan eksperimental berilganlar yukolib kolishi, galvanik koplash kalinligi normaga mos kelmasligi mumkin. Shunday kilib, real vakt OT larining unumdorlik kriteriysi dasturni bajarilishga kuyilish vakti bilan, natija olish urtasidagi berilgan vaktga chidash kobiliyati xisoblanadi. Bu vakt tizimning reaksiya vakti, tizimning mos xususiyati esa - reaktivlik deb ataladi. Bunday tizimlar uchun multiprogramma aralashmasi avvaldan ishlab chikilgan dasturlarning fiksirlangan

tuplamini tashkil etadi, dasturni bajarilishga tanlovi esa obyektning xolatidan kelib chikib yoki rejalashtirilgan ishlar tuyxatiga mos amalga oshiriladi.

Operatsion tizim (OT) – bu kompyuter zahiralari boshqarish, amaliy dasturlarni yuklash va ularning tashqi qurilmalar, boshqa dasturlar bilan o'zaro aloqasini amalga oshiruvchi, shuningdek foydalanuvchining kompyuter bilan dialogini ta'minlovchi dasturiy vositalar yig'indisidir

Operatsion tizim (OT) - bu dastur bo'lib, foydalanuvchi bilan kompyuter o'rtasida vositachilik funksiyasini bajarishida ikkita maqsad uchun xizmat qiladi: kompyuter resurslarini samarali taqsimlash va foydalanuvchining samarali ishlashi uchun imkoniyat yaratish.

Operatsion tizimlar, kompyuterda hisoblash va qayta ishlash jarayonlarini ta'minlash, kompyuterni tezkor va diskli sohalari resurslarini taqsimlash, foydalanuvchini dasturini yuklash va unda ishni yakunlash, foydalanuvchini kompyuter bilan muloqat usullarini (interfeys) tashkil qilish kabi funksiyalarini amalga oshiradi. Masalan, **MS DOS, Windows' 95' 98' 2000' XP' 2007 vista' 2008, Unix, Linux, Mac OS, OS/2.**

## **2. Klient va server operatsion tizimlari**

Linux operatsion tizimi:

Linux –bu shaxsiy kompyuterlari va ishchi stansiyalari uchun UNIX turkumli operatsion tizim.

Bu tarmoqli darchali grafik sistemaga ega bo'lgan X «Windows system» sistemasi bo'lib ko'p qo'llaniladigan yaxshi himoyalangan tarmoqli operatsion sistema hisoblanadi.

Linux operatsion sistemasi internet tarmog'idagi ochiq sistemalari va protokollar standartlarini qo'llab quvvatlaydi hamda UNIX. DOS MS WINDOWS sistemalariga mos keladi.

Ham ish joyida ham uyda foydalanish uchun legal ochiq ravishda zamonaviy OS ga ega bo'lish imkoniyatini beradi.

Tez harakatlanish darajasiga ega.

Mustahkam barqaror uzilishlarsiz ishlaydi.

Viruslar tasiridan holi.

Zamonaviy PKlar imkoniyatlardan to'la foydalanishga imkoniyat beradi hamda DOS va MS Windows larga xos bo'lgan kompyuterlari xotirasi va prosessorlari resurslaridan foydalanishdagi cheklanganlikni olib tashlaydi.

Linux operatsion sistemasi tomonidan beriladigan imkoniyatlar.

Kompyuterlarni lokal va global tarmoqlarga shu jumladan Internetga oson integratsiya qilishga imkon beradi.

UNIX MS DOS va MS Windowslarning turli versiyalaridagi boshqa OSlarning formatida berilgan amaliy dasturlarni bajarish imkoniyatini beradi.

UNIX dunyosida jamlangan va dastlabki matnlar bilan birga ochiq tarqatilayotgan juda ko'p sonli turli dasturiy paketlardan foydalanishga imkon yaratadi.

Ko'p vazifalilik.

Ko'p foydalanuvchilar bir vaqtning o'zida bitta kompyuterdan foydalaniladi.

Prosessorning himoyalangan rejimi.

Prosessori xotirasini himoyalanganligi.

Tejamli yuklash.

LINUX - bu operatsion tizim aynan u elektron komponentlarini ishlashini taminlaydi.

Operatsion tizim foydalanuvchi va kompyuter orasida bevosita mulokat o'rnatishni, kompyuterni boshkarishni, foydalanuvchi uchun qulaylik yaratishni, kompyuter resurslaridan okilona foydalanish va xokazolarni ta'minlovchi dasturlardir. Masalan, UNIX, MS DOS, OS/2, Linux, WINDOWS, MACINTOCK va boshkalar. Bunday tashkari xizmat kiluvchi dasturlar xam mavjuddir.

UNIX operatsion tizimi

UNIX-ko'p foydalanuvchili, ko'p vazifali operatsion tizim bo'lib, u dasturlarni va turli foydalanuvchilarning fayllarini yetarlicha kuchli himoya vositalarini o'z ichiga oladi.

UNIX- operatsion tizimi dasturlarining ko'p qismi Si tilida yozilgan va mashinaga bog'liq emas. Bu operatsion tizimning harakatchanligini va amaliy dasturlarni universal EHM ga, mini EHMga va turli arxitekturali kompyuterlarga osongina o'tkazilishini ta'minlaydi.

Bu UNIX oilasidagi operatsion tizimning muhim xususiyati uning modulliligini va keng servisli dasturlar to'plami bo'lib, ular foydalanuvchi-dasturlovchilar uchun qulay operatsion vaziyatni yaratishni ta'minlaydi.

UNIX iyerarxik fayli struktura, virtual xotira, ko'p oynali interfeys, ko'p prosessorli tizimlar, ko'p foydalanuvchili berilganlar bazasini boshqarish tizimi, bir jinsli bo'lmagan hisoblash tarmoqlarini qo'llab – qo'vvatlaydi.

Bu sistema ko'p vazifali hisoblanib, 32 razryadga ega. Bu holat tizimni bir mashina arxitukturasidan boshqasiga kam sarf bilan o'tkazish imkoniyatini beradi.

UNIX operatsion sistemasi taqsimlovchi ma'lumotlar bazasiga kirish, lokal tarmoqlar, olis masaofadan aloqa qilish va oddiy modem yordamida global tarmoqlarga ulanish imkoniyatlarini o'zida mujassamlashtira oladi. OTlarda interfeys, foydalanuchi interfeysi atamalari ishlatiladi.

### **3. Fayllar va papkalar**

Barcha dasturlar va berilganlar kompyuterda fayl ko'rinishida saqlanadi

Fayl- bu axborotlarni saqlashga mo'ljallangan diskning nomlangan sohasi

Fayl — bu tashqi tashuvchida saqlanadigan va bir umum nomga birlashtirilgan axborotdir.

Har bir axborot (yumshoq, qattiq yoki lazer diskda) tashuvchisida ko'p sondagi fayllar saqlanishi mumkin. Diskda fayllarni saqlanish tartibi o'rnatilgan fayllar tizimi bilan belgilanadi.

Faylli tizim - bu fayllar bilan operatsiyalarni bajarilishini ta'minlaydigan, operatsion tizimning funksional qismi.

Faylli tizim – diskda fayllarni joylashish tartibi.

Fayl nomi. Fayl nomi nuqta bilan ajratilgan ikkita qismdan iborat bo'ladi: fayl nomi (255 belgigacha) va kengaytmasi (3 belgi)

**Fermer 106 guruh.doc**

файл номи

кенгайтмаси

|                                            |                                                   |
|--------------------------------------------|---------------------------------------------------|
| Fayl nomi foydalanuvchi tomonidan beriladi | Fayl nomini kengaytmasi dastur tomonidan beriladi |
| <b>Informatika va AT</b>                   | <b>doc</b>                                        |



| Fayla tipi                                    | Kengaytmasi              |
|-----------------------------------------------|--------------------------|
| <b>Bajariladigan fayllar</b>                  | exe, com, bat            |
| <b>Matnli fayllar</b>                         | txt, rtf, doc            |
| <b>Grafik fayllar</b>                         | bmp, gif, jpg, png, pds  |
| <b>Web-sahifalar</b>                          | htm, html                |
| <b>Tovush fayllari</b>                        | wav, mp3, midi, kar, ogg |
| <b>Videofayllar</b>                           | avi, mpeg                |
| <b>Dasturlash tilidagi dastur kodi (matn)</b> | bas, pas, cpp            |
| <b>Arxivli fayllar</b>                        | arj, zip, rar            |


Windows OTda papka atamasi qo'llaniladi. Papka Windows obyekt bo'lib, u fayllar va boshqa papkalarni birlashtirishga mo'ljallangan. Windows da papkalar iyerarxiyasida Rabochiy stol (Ish stoli) eng yuqorisi bo'lib hisoblanadi. Undan keyin darajalarda Moy kompyuter, Korzina va Setevoye okrujenije papkalari turadi.

Bitta diskda bir nechta disklar bo'lishi mumkin. Bu disk yurituvchilarni har biriga lotin alifbosida bitta harfli nomlar quyiladi:

A:, V:, S:, D:, ...

Mantiqiy disk- bu nomlangan fizik disk, real disk yoki fizik diskning qismi.

**Файли структура- – дискдаги барча файллар тўплами ва уларнинг ўзаро алоқаси**




Bir darajali fayllar tizimi

Kichik sondagi fayllar uchun «Bir darajali fayllar tizimi»ni qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu holda papka (disning sarlavhasi) fayllar nomini chiziqli ketma-ketligidan iborat bo'ladi.

Ko'p darajali fayllar tizimi

Agar diskda yuzlab va minglab fayllar saqlanayotgan bo'lsa, ularni izlash va foydalanishni o'ng'ay bo'lishini ta'minlash uchun, «Ko'p darajali fayllar tizimi»ni (iyerarxik-daraxtsimon) qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi.



**Файллар ва пакалар устда операсиялар**

- Kopirovaniye- Nusxalash (fayl nusxasi boshqa katalokka qo'yiladi)
- Peremesheniye –Siljitish. (faylni o'zi boshqa papkaga o'tkaziladi)
- Udaleniye-o'chirish. (fayl xaqidagi yozuv papkadan o'chiriladi)
- Pereimenovaniye –qayta nomlash. (fayl nomi o'zgartiriladi).

Fayl yo'li



C:\Moi dokumenty\Ivanov\QBasic.doc

C:\Moi dokumenty\Petrov\Pismo.txt

C:\Moi dokumenty\Petrov\Risunki\More.bmp

C:\Filmy\Interesnyy film.avi

## Windows папкалари иерархияси



Windows XP OTning asosiy vazifasi axborotlarni qayta ishlash jarayonlarini boshqaradi va apparat vositalari bilan foydalanuvchi o'rtasidagi o'zaro aloqani ta'minlashdan iborat. OTning asosiy vazifalaridan yana biri axborotlarni kiritish va chiqarish jarayonlarini avtomatizasiyalash, foydalanuvchilar tomonidan yechiladigan amaliy masalalarning bajarilishini boshqarishdir. OTlar kerakli dasturni kompyuter xotirasiga yuklaydi va uning bajarilishi jarayonlarini nazorat qiladi, normal hisoblashlarga halaqit beruvchi vaziyatlarni tahlil qilib, yuzaga kelgan qiyinchiliklarni bartaraf qilish haqida ko'rsatmalar beradi.

WINDOWS ish stolida papka yorliklar va xar xil maxsus belgilar joylashadi. Papka -bu suz bilan nomlangan diskdagi ma'lumotlar soxasi, uning ichida boshka papka va fayllar joylanishi mumkin. Bu soxada fayl va boshka papkalar saklanishi mumkin. Yorlik - bu diskda joylashgan fayl yoki dasturgacha yullanma. Bu yullanmaga sichkoncha bilan ikkitali bosish yordamida kirsak, kompyuter yullanmaga mos fayl yoki dasturni ochib beradi. Bitta fayl yoki dastur bir nechta yorliklarga ega bulishi mumkin. Maxsus yoki ish stolninng asosiy papkalar - bu windows dastur ustidan xar xil amallarni bajaruvchi maxsus dasturlarga yullanma. Ular kuyidagicha:



Мой  
компьютер

MOY KOMPYuTER - maxsus papka yordamida sizning kompyuteringizda joylashgan disklar, papkalar va ular ichidagi fayllarni kurish va ular bilan ishlash (xar xil amallar bajarish) imkoniyat yaratadi.



Мои  
документы

MOI DOKUMENTЫ - maxsus papkada siz tomonimizdan ish jarayonida yaratilgan matn , rasm, jadval va boshka fayllar saklanadi. Bu belgi yordamida esa shu papkaga tezkor utishimiz mumkin va ular bilan ishlash imkoniyat yaratiladi)




Мое сетевое  
окружение

SETEVOYe OKRUJENIYe - maxsus papka yordamida sizning kompyuteringizga tarmokga ulangan kompyuterlardagi fayl, papka va disklar bilan ishlash imkoniyat yaratadi.




Корзина

KORZINA - maxsus papkada siz tomoningizdan yakinda uchirilgan fayl va papkalarni ruyxati joylashadi. Bu belgi yordamida esa shu papkaga tezkor utishingiz va ruyxat yordamida ularni kayta joyiga tiklashingiz mumkin buladi.




Windowsning maxsus papkalar kuyidagi kislardan iborat: *Nom satri*, *Menyu satri*, *Yordamchi kurollar tugmalari satri*, *Ish soxa*, *Ma'lumotlar satri*, *Oyna chegaralari* va *Kurib chikish chizgichlari*. Ush bu kislmar bilan biz utgan mavzuda tanishganmiz. Ush bu papkalarining xammasida yordamchi kurollar (asboblar) tugmalari satri bir xil bulib ular yordamida biz eng asosiy amallar va xarakatlarni bajarishimiz mumkin. Shu tugmalar bilan yakinrok tanishaylik.



1. NAZAD - oynaning oldingi kuriniga utish,
2. VPERED -oynaning keyingi kurinishiga utish,
3. VVERX - yukoridagi papkaga chikish
4. POISK - fayl, papka, kompyuterni, Internet saxifani kidirish
5. PAPKI - ish soxani chap tomondagi kismda papkalar ruyxatini kursatish yoki kursatmaslik
6. JURNAL - ish soxani chap tamondagi kismda oxirgi ochilgan va kurilgan internet saxifalar ruyxatini kursatish yoki kursatmaslik
7. PEREMESTIT V - tanlangan obyektни boshka joyga kuchirib olish
8. KOPIROVAT V - tanlangan obyekt nusxasini boshka siz kursatgan joyga kuchirib olish
9. UDALIT - tanlangan obyektни uchirish

#### 4. Fayl tizimi va uni boshqarish

Faylli tizim- bu operatsion tizimning qismi bo'lib, uning vazifasi foydalanuvchiga diskda saqlanayotgan berilganlar bilan ishlash uchun qulay interfeysni yaratish, va fayllardan bir nechta foydalanuvchilar va jarayonlarda birgalikda foydalanishini ta'minlashdan iborat.



Fayllarni boshqarish uchun fayllarni boshqarish tizimi tuziladi. Faylli tizim, bu uning dasturiy ta'minotiga mos keluvchi maxsus instruksiyalar majmui bo'lib, u fayllarni tuzish, yo'qotish, tashkil etish, o'kish, yozish, faylli axborotlarni modifikatsiya qilish va siljitish, shuningdek fayllarga kirishni boshqarish va resurslarni boshqarishga javob beradi. Aynan faylli tizim diskda yoki boshqa biror bir axborot tashivchisida berilganlarni tashkil qilish usullarini aniqlaydi.

O'z o'rnida faylli tizim va fayllarni boshqarish tizimi tushunchalari farqlanadi.

Fayllarni boshqarish tizimi aksariyat operatsion tizimlarning qism osti tizimi hisoblanadi.

*birinchidan*, fayllarni boshqarish tizimi orqali barcha tizimli qayta ishlash dasturlari berilganlar (axborotlar) bo'yicha bog'lanadi.

*ikkinchidan*, bu tizim yordamida markazlashgan holda disk kengliklarini taqsimlash va berilganlarni boshqarish muammolari hal qilinadi.

*uchinchidan, u yoki bu fayllarni boshqarish tizimi yordamida foydalanuvchilarga quyidagi imkoniyatlar yaratiladi:*

**- maxsus boshqarish dasturlari orqali nomlangan fayllarni tuzish, yo'kotish, qayta nomlash (va boshqa amallar) va foydalanuvchini undagi berilganlar bilan ishlashda qulay interfesni ta'minlash;**

**-diskli qurilmalar bilan ishlashni o'rniga, fayllar bilan ishlashni tashkillantirilishi;**

**-berilganlarni fayllararo, qurilmalararo, fayl va qurilmalararo (va aksincha) almashuvini;**

**-fayllarni boshqarish tizimini dasturiy modullariga murojlat qilish asosida fayllar bilan ishlash;**

**-fayllarni ularga ruxsat berilmagan kirishlardan (murojaatlardan) himoyalash.**

«Faylli tizim» atamasi faylda tashkil qilingan berilganlarga kirish (murojaat qilish) prinsiplarini aniqlaydi. Bu atama ko'proq u yoki bu axborot tashuvchilarida saqlanayotgan fayllarga nisbatan qo'llaniladi.

«Fayllarni boshqarish tizimi» atamasi esa, aniq faylli tizimni amalga oshirish jarayonini qo'llanilishida ishlatiladi. Demak, fayllarni boshqarish tizimi, bu dasturiy modullarning majmui bo'lib, u aniq operatsion tizim doirasida fayllar bilan ishlashni ta'minlaydi.

Disklarning mantiqiy strukturasi quyidagilardan iborat bo'ladi:

- yuklash sohasi,
- FAT-sohasi,
- kataloglar sohasi,
- berilganlar sohasi.

**Fayllarning asosiy vazifasi- axbortlarni** saqlashdan, shuningdek berilganlarni dasturdan dasturga, tizimdan tizimga uzatishdan iborat. Odatda fayl nomi, atributlari, modifikasiyalangan (o'zgartirilgan) vaqti va tuzilgan vaqti bo'yicha ma'lumotlarni o'zida mujassamlashtiradi.


Faylni – baytlar ketma-ketligi sifatida qarash va uni amaliyotga tatbiq qilish g'oyasi Unix operatsion tizimini yaratishda o'z aksini topdi va tizimni rivojlanishini ta'minladi.

Fayl baytlarning ketma-ketligidan iborat bo'lgan diskning nomlangan sohasi bo'lib, u kompyuterning tashqi axborot tashuvchilarda saqlanadi.

Demak, fayl tashqi axborot tashuvchilarda saqlanadigan baytlar ketma-ketligidan iborat diskning nomlangan sohasi.

Faylli struktura deganda, fayllarni xotirada qurilmalarida masalan disklarda tizimli saqlanishi tushuniladi. Odatda fayllar direktoriya (kataloglar) larda shakllantiriladi. Har bir katalog ixtiyoriy sondagi qism kataloglardan iborat bo'lishi mumkin va ularning har birida fayllar va boshqa kataloglar saqlanishi mumkin.

Berilganlarning baytlarda shakllantirish usullari, faylning formatini ifodalaydi. Faylni o'qish uchun, masalan elektron jadvalni, har bir yacheykada (katakda) baytlar sonlarni qanday ko'rinishda ifodalyotganlini (formulalar, matnlar) va boshqa axborotlarni bilish zarur bo'ladi.



Windows 2000 boshqarilishida ishlaydigan kompyuterda bu fayllar tizimining har qaysisini ishlatish mumkin (biroq serverli platforma uchun NTFS ni tanlash har doim avzalloq). Bundan tashqari bu fayl tizimlarni birga ishlatish ham mumkin. Fayl tizimlarning tanlashda quyidagi omillar ta'sir ko'rsatadi:

- Kompyuterni ishlatishda qo'yiladigan maqsad (server yoki ishchi stansiya);
- qattiq disklarning soni va ularning hajmi. Xavfsizlik talablari.
- NTFS 5,0 qo'shimcha imkoniyatlarining ishlatish zarurligi.

FAT bilan taqqoslaganda NTFS qator ustunliklarga ega bo'lib keyinroq bayon etiladi. Biroq agar Windows 2000 ga qo'shimcha qilib yana bir operatsion tizimni ishlatilishi ko'zda tutilsa, shuni esda tutish kerak - NTFS bo'limlarida joylashgan fayllarga kirishga ruxsat faqat Windows 2000 oilalarining OT orqali olishga mumkin bo'ladi. Shuning uchun boshqa operatsion tizimning tizimli va yuklanuvchili bo'limlari uchun boshqa fayl tizimni ishlatish kerak bo'ladi (bo'lmasa bu OT yuklanib ololmaydi).

## **2. FAT fayllar tizimi**

FAT fayl tizimni (ko'pincha FAT 16 faraz qilinadi), katta qo'shimcha sarf xarajatlar bo'lgani uchun, 511 Mbaytdan o'lchamlari katta bo'lgan tomlar (disklar) uchun ishlatish tavsiya etilmaydi. FAT fayl tizim quyidagi avzalliklarni beradi:

- Fayl tizim FAT faqat Windows NT oilalarning OS bilan ishlatilmasdan, balki boshqa operatsion tizimlari bilan ham, shu jumladan Windows 9x, Windows for Workgroups, MS-DOS va OS/2 lar bilan ishlatilishi mumkin.

- FAT fayl tizimning ishlatilishi – bu katta o'lchamlari bo'lmagan tomlar uchun eng yaxshi tanlov, Chunki bunda qo'shimcha sarf-harajatlar eng kam bo'ladi.

O'lchamlari 500 mbayt dan oshmaydigan tomlarda, u juda yaxshi ishlaydi. Biroq katta tomlarda (1 Gbayt va undan ko'proq) FAT effektiv bo'lmay qoladi.

